

Anarboyeva Irodaxon Oripovna
ADCHTI, Fransuz tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrası katta o‘qituvchisi

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOREFERENT GAPLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI TADQIQI

Asos nominatsiya boshqa nominatsiyalarga bog‘liq bo‘lmagan holda tinglovchi uchun ma‘no ravshanligini yaratadi va shu boisdan avtonomlik xususiyatini kasb etadi. Takroriy nominatsiya esa uning leksik-grammatik xususiyatlari zamirida nutqda namoyon bo‘ladi.

Nutq kontekstining turli o‘rinlaridan joy olgan ish-harakatni birinchi nomlovchi, shuningdek, qayta, takroriy nomlovchi til belgilari farqlanadi. Birinchi nomlovchi va takror nomlovchi o‘rtasidagi uzviy aloqa umumiy semantema uyg‘unligiga ega bo‘lgan nominatorlar sintagmatik bog‘lanishining alohida ko‘rinishini shakllantiradi.

Nutqda har ikki nomlovchi so‘zlar o‘rtasidagi sintagmatik bog‘lanish mazmunini ular o‘rtasida paydo bo‘ladigan bir umumiy ma‘no o‘xshashligi tashkil etadi. Ya‘ni, semantik tuzilishdagi asos nominatsiya keyingi qatorlarda takror nomlovchi sifatida qayta nomlanib mazmuniy tizimdan joy oladi. Chunki u birinchi atamani ifodada almashtirib keladi. Muayyan talqinda birinchi nomlovchi nominativ manba, asosga aylanadi hamda tasvirlanuvchi xususiyat kasb etadi. O‘z navbatida, takroriy nomlovchi esa nominativ manbani, asosni nutq oqimida tasvirlovchi vositaga aylanadi va ifoda me‘yori talablari ta‘sirida xilma-xil ko‘rinish kasb etgan holda ifoda vositalari variativligini yaratadi. Variativlik nuqtai nazaridan nutq sintagmasida ifodaga kiruvchi til birliklari nutq vaziyatida alohida axborot qimmatini kasb etuvchi tugal gaplar ko‘rinishini shakllantirishda ishtirok etadi. Kommunikativ nuqtai nazardan har bir tugal gap yaxlit axborot majmuini yaratishda individual ko‘rinish kasb etadi. Axborot bayoniga taqqoslanganda har bir gap kommunikativ qimmati nuqtai nazaridan betakror hisoblanadi va shu boisdan nutq izchilligini yarata oladi.

Bu o‘rinda quyidagi misolni keltiramiz:

De temps en temps, quelqu'un baillait; un autre presque aussitot l'imitait, et chacun, a tour de role, suivant son caractere, son savoir-vivre et sa position sociale, ouvrait la bouche avec fracas en modestement en portant vite sa main devant le trou beant d'ou sortait une vapeur. (Maupassant, “Boule de Suif”, p. 34)

Vaqt vaqti bilan kimdir eslar edi, boshqasi shu zahotiy oq unga taqlid qilar edi, va har biri navbatma navbat xulqiga, yashash tarziga va mavqeyiga qarab, ibo bilan gumburlatib, bug‘ chiqib turgan ulkan teshikni to‘sib og‘zini ochar edi. (Mopassan, “Do‘ndiqcha” 123-b)

Ushbu misoldagi ikki tugal mustaqil gap tarkibidan joy olgan “bailler” va “imiter” fe‘llari umumiy “esnamoq” ma‘nosi asosida alohida sintagmada o‘zaro bog‘lanadilar. Ikki tugal mustaqil gap o‘zaro munosabati doirasida ma‘no o‘xshashligiga ko‘ra bir-biri bilan birikayotgan “bailler” va “imiter” fe‘llari sintagmatik bog‘lanishning ikki nominator o‘rtasidagi segmentini hosil qiladi. O‘z navbatida bog‘lanishning sintagmatik segmenti ikki tugal mustaqil gaplar o‘zaro birikuvini, zanjirli bog‘lanishini ta‘min etishda ishtirok etayotgan yetakchi omillardan biridir.

Sintagmada “bailler” birinchi nom, “imiter”-takroriy nom.

Mazkur nutqiy vaziyatda “bailler” birinchi nominativ manba, asos hisoblanadi va izohli lug‘at ta’rifiga ko‘ra uning semantik tarkibidan joy olgan quyidagi ma’no tarkibiy bo‘laklari “bailler, ouvrir la bouche pour aspirer, puis expirer l'air en contractant les muscles de la face” umumlashgan holda o‘z aksini tasvirlovchi “imiter” nomlovchi semantik strukturasi topadi. Muayyan holatda “imiter” tayanch manba hisoblanmish “bailler” fe’li evazigagina “esnamoq” ma’nosini kasb etadi. Mabodo tayanch manba o‘zgaruvchi bo‘lsa, takror nomlovchi vazifasidagi “imiter” ma’nosining nutq vaziyatida o‘zgarishi va tayanch ma’noga moslashuvi tabiiy hol. Ushbu so‘zning lug‘aviy izohi shundan dalolat beradi: “Imiter, en bonne ou mauvaise part, exprime une ressemblance plus ou moins approchante”. “Imiter” fe’lining mazkur nutqiy vaziyatdagi muhim alomati “bailler” fe’lini funksional jihatdan nutqda almashtirib kela olish xususiyatidir.

Nutqiy vaziyatda ana shunday muhim imkoniyatga ega boshqa bir fe’l ifodasiga nazar tashlaylik ;

Mais deux hommes se reunirent, un troisieme les aborda, ils causerent: “J'emmene ma femme, dit l'un. - J'en fais autant. - Et moi aussi”. (Maupassant, “Boule de Suif”, p.29)

Ikki kishi yig‘ilishdi, uchinchisi ularga qo‘shildi. Ular suhbatlashishdi: “Men xotinimni olib qolaman, dedi biri,- Men ham shunday qilaman.. – men ham” (Maupassant, “Do‘ndiqcha” 134-b)

Ushbu misolda “emmener sa femme” birinchi nomlovchi sifatida takroriy nomlovchi “en faire autant” bilan umumiy ma’no o‘xshashligiga ko‘ra yagona sintagmatik qatorda joylashib o‘zaro bog‘lanmoqda. “En faire autant” “emmener sa femme” fe’l birikmasini funksional jihatdan almashtirib kelmoqda, chunki ular muayyan nutq vaziyatida umumiy ma’no o‘xshashligi asosida (“xotinini olib ketmoq”) sinonimik xususiyat kasb etmoqda. Demak, “emmener sa femme” fe’l birikmasining ma’no qismlari “Emmener, mener hors du lieu on l'on est vors un antre lien indetermine” semantik umumlashmasi “faire” semantikasida qayta gavdalanadi. Garchi “faire” fe’li ta’rifi “Faire: agir, etre en action independamment de tout effet” ushbu so‘zning ancha keng, mavhumlashgan semantik qamrovga ega ekanligidan dalolat bersa-da, muayyan nutqiy vaziyatda konkret fe’l (emmener) semantik belgini o‘zida mujassamlashtirgan va uni almashtirib kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur nutqiy vaziyatda “J'emmene ma femme”ga nisbatan “J'en fais autant” funksional almashtiruvchi hisoblanadi.

Men uyga qaytmoqchiligimni aytdim. Chang va tuproqqa belangan yirtiq kovushlarini sudrab bosib, devor yoqalab borayotgan momo yurishdan to‘xtab, qo‘llarini yozdi. Men ham shunday qildim. Momo menga qaragancha uzoq duo berdi. (M.Murodov)

Kontekst orqali qo‘llarini yozdi birikmasi tinglovchi ongida duoga qo‘l ochilganligini implitsit tarzda ifodalaydi, shuning uchun men ham shunday qildim takroriy nominatsiyasida ham aynan shu harakat amalga oshirilganligi anglashiladi va mazmun bog‘liqligi ta’minlanadi.

Demak, takror nomlovchilar birinchi nomlovchilarga tayanch manba sifatida suyangan holda ular bilan munosabatga kirishadi, umumiy o‘xshashlikning turli ko‘rinishlari asosida o‘zaro bog‘lanadi. Har ikki nomlovchi munosabatiga xos bo‘lgan shunday semantik bog‘lanishlardan biri nominatorlarning to‘la semantik moslashuviga asoslangan o‘xshashlikdir. Semantik bog‘lanishning mazkur ko‘rinishi ko‘proq leksik takrorlar, leksik sinonimlar, sinonimik iboralarda o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Galisson R. Analyse Semique, Actualisation Semique, Et Approche Du Sens En Methodologie//Langue Fransaie, N 8, 1970.
2. Гак В.Г. Беседы о Французском Слове. – М.: 1966. Сопоставительная Лексикология. – М.: 1977.
3. К Типологии Лингвистических Номинаций // Языковая Номинация (Общие Вопросы). – М.: 1977. – С.287-293
4. Эргашева Д. И. К Методическому Вопросу Анализа Учебников в Преподавании Иностраных Языков // Педагогическое Мастерство: Мат-Лы Ii Междунар. Науч. Конф. (г. Москва, Декабрь 2012 г.). М.: Буки-Веди, 2012.
5. Kazakbayeva D. Typology Of The Constituents Of The Semantic Field Of The Concept Of "Ear" In English And Uzbek. Soi: 1.1/Tas. Doi: 10.15863/Tas International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-Issn: 2308-4944 (Print) e-Issn: 2409-0085 (Online). Year: 2021. Issue: 11. Volume: 103 Published: 30.11.2021
6. Kazakbayeva, D. (2021). The Words With The Semantics Of «Ear» Pragmatic Properties In The Uzbek Language. Interconf, (72). Вилучено Из <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/interconf/article/view/14143>
7. D. Kazakbayeva, S. Qodirov. Ingliz Va o'zbek Tillarida "Quloq" Semantic Maydoni Konstituentlari Tipologiyasi, Science And Education 2 (4), 2021, p441-452
8. Shukurdinovna, Shamatova O., And Kazakbayeva D. I. Kizi. "Pedagogical Problems Of Creating English Textbooks." Journalnx, Vol. 7, No. 1, 2021, Pp. 109-112.
9. Сущность Речевой Культуры При Обучении Иностранному Языку. Дильфуза Илхамовна Эргашева. Молодой Ученый, 316-317, 2010
10. Kazakbayeva, D., Shokirov, Sh., & Mamatkulov, A. (2021). Research On Lexicalsemantic Field Of "Ear" In Different Structural Languages. Philosophical Readings 13, 2283-2289.
11. Анарбоева, И. О. (2024). Француз Ва Ўзбек Тилларида Корреферент Гапларнинг Структурал-Семантик Ва Функционал Жихатлари. International Journal Of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 692-697.
12. Анарбоева, И. О. (2023). Такрорий Номинация Тил Ифода Бирликлари Вариативлигини Шакллантирувчи Восита Сифатида. Theory And Analytical Aspects Of Recent Research, 2(13), 249-251.
13. Ишанжанова, М. Француз Ва Ўзбек Бадиий Матнларида Макон Дейкисларининг Семантик Хусусиятлари. O 'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2020,[1/1] Issn 2181-7324.
14. Mumtoza, A., & Munosibxon, I. (2023). Communication Is The Basis Of The Communicative Method. *Ethiopian International Journal Of Multidisciplinary Research*, 10(11), 194-196.